



**TOSHKENT DAVLAT
AGRAR UNIVERSITETI**

№3. [3]. 2025

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



2025-yil, №3/[3]-son



**“AGROBIZNES, FAN VA
TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-
AMALIY ELEKTRON JURNALI**

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriiddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), dots.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiye Nurali – i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich – i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD).

Dehkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich – b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich – q.x.f.d. (DSc), dots.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li – q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Matatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriiddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr 725 sahifa. E‘lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi.

MUNDARIJA

Iqtisodiyot fanlari

Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna

Mehnat munosabatlarini takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....8

Qodirova Xolida Salimovna

Qoraqalpog'iston Respublikasida ziyorat turizmini zamonaviy shakllarini barqaror rivojlantirish yo'nalishlari.....14

Norqobilov Jahongir Isroil o'g'li

Avtotransport xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy baholash mohiyati.....23

G'iyosov Ilhom Karimovich, Raxmatov Oybek Yangiboyevich

Qurilish tashkiloti iqtisodiy salohiyatining tarkibi va uning umumiy hajmini baholash.....33

Ибрагимова Мадина Исмоиловна, Хамрокулова Райхона Фаридуновна

Демографические изменения и их влияние на макроэкономическую динамику.....42

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Xudoyberdiyev Safar Asadullo o'g'li

Eksport salohiyatidan samarali foydalanishda mahsulot sifatini oshirishning o'rni.....49

Бегматов Хусан Эгамкулович

Молиявий ҳисоботларни тузишда хорижий тажрибани қўллаш масалалари.....60

Vafoeva Dilafruz Ikromovna

Sun'iy intellekt, blockchain va kripto-valyutalar: iqtisodiy o'zgarishlar va yangi imkoniyatlar.....74

Ochilov Ilhom Sayitqulovich

Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligiga global iqlim o'zgarishi ta'siri tahlili.....82

Bustonov Komiljon Kumakovich, G'aniev Baydulla Toshmurodovich

Qishloq xo'jaligida turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish.....89

Abdullaeva Go'zal Altinbekovna, Abdullaev Altinbek Yangibaevich

Tijorat banklarining iqtisodiy xavfsizligi holatining tahlili va rivojlanish tendensiyalari.....96

Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li

Kichik korxonalar hisob siyosatida soliq hisobini tutgan o'rni.....117

Zikirov Zafarjon Izzatillo o'g'li

Qo'shilgan qiymat solig'idagi salbiy farq va ortiqcha to'lov yuzaga kelishi hamda ushbu tushunchalar farqining mazmuni va iqtisodiy mohiyati.....126

Рашидов Жамшид Хамидович

Яшил иқтисодиётни инновацион бошқаришда хавф-хатарларнинг таъсири ва уни камайтириш йўллари.....133

Zulfigarov Xolbek Ubaydulla o'g'li

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini moliyalashtirish.....138

Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li

Mamlakatimizda turizm klasterini yaratish va davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish.....145

Davlatov Sanjar Abdimannonovich

Qishloq xo'jaligi sohasida biznes muhitini rivojlantirish.....153

Mavlyanova Dilobar Maxkamovna

Joriy aktivlar auditida tahliliy amallarni qo'llashning tashkiliy jihatlari.....164

Расулова Мухаббат Тишабаевна

Мамлакатимизда туризмни ривожлантириш ва хорижий тажрибалар.....173

Zakimov Aybek Muratbayevich

Awil xo'jaligida kooperaciyanı rawajlandiriwdiń institucionallıq qatnası.....183

Yusupdjanova Nargiza Utkirovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi

O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish stavkasining iqtisodiyotga ta'siri.....189

Tashmatova Dildora Abdusaitovna	
O‘zbekistonda marketing faoliyati va unga doir ustuvor yo‘nalishlar.....	197
Valijonov Nurullo Nodirbek o‘g‘li	
Qurilish materiallari sanoatiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish.....	203
Ataxanov Farhodbek Abdumajidovich	
Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning huquqiy-moliyaviy asoslari.....	212
Ruzmetov Qudrat Shermetovich, Turgunov Tolibjon Tursunovich	
Raqamli boshqaruv tizimini agrosanoat majmuasida qo‘llanilishi.....	216
Qarshiyev Istamjon Hayitmurod o‘g‘li	
O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning roli va ularning yaimga ta’sirini baholash.....	220
Abdullayev O‘tkir Abduraim o‘g‘li	
Dukkakli ekinlar yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari.....	226
Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o‘g‘li	
Mintaqada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy-ekologik mexanizmlarini takomillashtirish.....	234
Kadirova Maral Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
Milliy kooperativ birlashmalarning rivojlangan mamlakatlardagi institutsional modeli va O‘zbekiston iqtisodiyotida adaptatsiya imkoniyatlari.....	240
Turobova Hulkar Rustamovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
Qishloq xo‘jaligi chiqindilarini ekologik toza o‘g‘itga aylantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxiga ta’siri.....	246
Насиров Дилшод Фархадович, Уразов Махмуджон Мусинович	
Человеческий капитал как фактор устойчивого роста в инновационной экономике.....	251
Yusupov Zulunjon Ziyoydinovich	
Fermer xo‘jaliklarini lizing asosida texnik modernizatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish...	257
Джамалова Асаль Сайдувалиевна	
Зарубежный опыт повышения эффективности цепочки создания добавленной стоимости в овощеводстве.....	264
Murtolibova Madina Mirjamshid qizi	
O‘zbekistonda mehmonxonalar boshqaruvini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	269
Акбарова Нилуфар Нетьматжоновна	
Марказий Осиё давлатларида мол-мулкга солиқ солиш тизими таҳлили.....	274
Bexzod Umarov Batirovich	
Yashil menejment tizimlarini takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	291
Mamaev Bahodirjon Nosirovich	
O‘zbekiston baliq sanoatini rivojlantirishda zamonaviy klasterlash.....	297
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Khusanboy	
The ways of improving ecotourism in Uzbekistan.....	305
Ergashev Ilhomjon Ikromovich	
Kichik biznes subyektlarining investitsion jozibadorligini baholash yo‘llari.....	314
Sadikov Zafarbek Adilbekovich	
Milliy valyuta kursiga ta’sir qiluvchi omillar.....	321
Усмонов Шокиржон Алиевич	
Фонд бозорларида банкларни фаоллигини ошириш.....	328
Иминов Зафаржон Махамматibroхимович	
Аҳоли бандлиги бўйича кўп вариантли статистик прогнозлаш жараёни.....	337

Saidova Dildora Nurmatovna, Nasulloyeva Malika Botir qizi

Global iqlim o'zgarish sharoitida resurs va suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishning xorij tajribasi.....346

Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husan Bahrom o'g'li

O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishida innovatsiyalarning roli.....353

Mengnorov Almardon Abdirahmonovich

Xalqaro bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish.....361

Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Respublika professional ta'lim muassasalarida samarali boshqaruvning rivojlanish tendensiyalari.....375

Abdullayeva Zulfiya

O'zbekiston turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari va samaradorlik omillari.....384

Kamolova Mohinur Iskandarovna

Turizm sohasida xizmatlar sifatining iqtisodiy ahamiyati va multiplikativ ta'siri.....391

Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li, Hakimova Oygul Axtamdjonovna

Yangi O'zbekiston innovatsion iqtisodiyoti sharoitida ayollar mehnatini tashkil etishning dolzarb masalalari.....395

Bobojonova Zarnigor

Singulyar iqtisodiyotning sanoat 4.0 va raqamli iqtisodiyot sintezi Markaziy Osiyo temir yo'l sanoati misolida.....403

Эргашев Уйғун Жабборович

Комерал назоратни ривожлантиришда рақамли технологияларнинг роли.....416

Bobojonova Zarnigor

Temir yo'l sanoatini raqamlashtirishda singulyar va amaliy iqtisodiyotning tatbiq etilishining xususiyatlari.....424

Mamatqulov G'ulom

Pochta aloqasi korxonalari faoliyatida raqamlashtirilgan xizmat turlarini rivojlantirish.....433

Tursunova Nigora Xusniddinova

Development of a model for effective management of the company's sustainable development.....445

Mamatqulov G'ulom

Raqamli transformatsiya va pochta tizimi: ilg'or davlatlar tajribasi va O'zbekiston misolida iqtisodiy tahlil.....450

Urinova Xulkar Shokirovna, Normamatova Zilola Sobirjonovna

yashil iqtisodiyot — kelajak iqtisodiy taraqqiyotining asosi.....458

Yakubov Abdurahmon

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy asoslari: harakatlar strategiyasining Konstitutsiyaviy mohiyati va amaliy natijalari.....463

Xalilova Aziza Rustamovna

Makroiqtisodiy omillarning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'siri.....468

Юсупов Азиз Шухратович

Тижорат банклари валюта операцияларидаги рисклар ва уларни камайтириш йўллари.....473

Бабамагов Толиб Ҳакимович

Мамлакатимизда ислом молиявий хизматларни жорий этишнинг иқтисодий аҳамияти.....482

Абсаматов Анвар Эргашевич

Мамлакатимиз банкларида активлар самарадорлигини рискка асосланган назоратини ривожлантириш йўллари.....490

Максумханова Азизахон Мукадировна

Қишлоқ аҳолиси бандлигини таъминлашда тadbirkorlikнинг аҳамияти.....499

Kaxorova Anora Nusratovna, Xaydarova Sitora Suranbay qizi

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida rivojlanishni iqtisodiy asoslash.....507

Tashxodjayeva Gulnoza Saydamxodjayevna

Soya ekinlarining agrotexnologik xususiyatlari va hosildorlikka ta'sir etuvchi omillar.....512

To'raeva Muyassar Rasul qizi

Meva-sabzavot yetishtirish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....518

Khujamkulova Khosiyat Ishbayevna, Ergashev Rakhmonali Shavkat ogli

The role of marketing in agriculture of the Republic of Uzbekistan.....527

Машарипов Озод Алимович, Минутдинову Лилию Тагировну

Комплексный подход к постановке управленческого анализа на предприятии в системе управленческого учета.....533

Kurambayev Alisher Saburbayevich

Jahon iqtisodiyotida yo'lovchi tashish xizmatini tashkil etishda temir yo'l transportining o'rni va ahamiyati.....540

Dexkanova Nilufar Sagdullaevna

Jahon miqyosida chorvachilikning rivojlanish tendensiyalari.....545

Uralov Eliboy Omonovich

O'zbekiston mintaqalari sanoatini hududiy tarkibini takomillashtirish.....555

Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, Murotjonova Mubina Dilshod qizi

Ishlab chiqarishni raqamlashtirish: O'zbekiston misolida yangi imkoniyatlar va muammolar.....559

Урунов Асрор Алижонович, Косимова Малика Хомидходжаевна, Мусаева Дилноза Дилшатовна

Современные организационно-экономические подходы к развитию телерадиовещательной отрасли Республики Таджикистана: проблемы, модель и перспективы.....566

Azamaliyeva Madinaxon

Ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish imkoniyatlari.....580

Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, Murotjonova Mubina Dilshod qizi

Raqamli transformatsiya davrida O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar va ularning yechimlari.....587

Арслонов У.У.

Ўзбекистон ҳудудларида маҳсул иқтисодий зоналар ривожланишига инвестициялар жалб этишни фаоллаштириш омиллари.....594

U.Allamberganova, S.Sarsenbaev

Problems of improving business of budget institutions and use of budget funds.....603

Арипова Анна Михайловна

Совершенствование бухгалтерского учёта и аудита в республике узбекистан на основании международного стандарта мсфо (ifrs) 3 "объединения бизнеса".....608

Qishloq xo'jaligi fanlari

Yuldashova Zebo Zuxrobovna, Sulaymonova Gulasal Nurilloevna

Bug'doy kasalliklari: turlari, belgilari va kurash choralari.....613

Ishmuratov Shavkat Saparovich, Saxadullayeva Iroda Xayrulla qizi, Xurramova Madina Sherali qizi

Arpa donining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga tuproq-iqlim sharoitlarini ta'siri.....619

Sattarova Ra'no Kadirovna

G'o'za o'simligining kasalliklari va ularga qarshi kurash usullarining samaradorligi.....623

Dexqonova Diloraxon Rasuljon qizi, Yuldasheva Charos Kamoliddin qizi

Sharqiy arnasoy suv havzasida uchrovchi oq sla (sander lucioperca l) balig'ining meristik belgilari taxlili.....628

Shokirov Alisher Jo‘raboyevich, Davlatov Jo‘shqinbek Shavkat o‘g‘li	
Yapon karamini qo‘llanilishi va oziqaviy qiymati.....	633
Abdullayev A.K., Aliyev Z.Z., Boboqulov M.Sh., Allayev O.O‘., Tuxliyev B.O., Imomova M.X.	
Biologik preparatlarning bug‘doy o‘sishi va hosildorligiga ta’siri.....	638
Shokirov Alisher Jo‘raboyevich, Davlatov Jo‘shqinbek Shavkat o‘g‘li	
Noan‘anaviy sabzavot yapon (brassica rapa. Var. Nipposinica) karamining ahamiyati, botanik, morfologik tuzilishi va biologik xususiyatlari.....	642
Shamuratova Gulnaz Muratbayevna	
Sho‘rlangan maydonlarda bio- va nanopreparatlar qo‘llashning sholi o‘simligiga ta’siri.....	648
Karimov Sharofiddin Abdulkarimovich, Islomov Toyirxuja Hasan o‘g‘li	
Chigitni ekish oldidan organik asosli stimulyatorlar bilan ishlov berishning nihollar unib chiqishiga ta’siri.....	653
М.Саримсақов, Г.Тўхтаева	
Ѓўза навларининг сув истеъмоли кўрсаткичлари ва бир центнер пахта хосили етиштириш учун сув сарфи.....	658
O‘razmatov Nasibjon Nazirovich, Zafarbek Kimsanboyevich Mamasoliyev, Nazirov Nozimjon Nasibjon o‘g‘li	
Surunkali va almashlab ekishning tuproq unumdorligiga hamda g‘o‘za hosildorligiga ta’siri.....	663
Ёкубов Жасур Ашуралиевич	
Кузги рапс (ясна нави) барг сатхининг шаклланишига экиш муддати ва меъёрларининг таъсири.....	667
Махсадов Хурсанбой Эсонович, Караев Гулям Рустамович, Ўралов Жасур Саидович	
Эффективность промывки и технология полива в слабозасоленных и средnezасоленных почвах джизакской области Узбекистана.....	672
Махсадов Хурсанбой Эсанович, Караев Гулом	
Ѓўзани ресурстежамкор суғориш тартибларини тупроқнинг агрофизик хоссаларига таъсири.....	681
Намозов Фазлидин Бахромович, Махсадов Хурсанбой Эсанович, Караев Гулом	
Сояни экиш тизимлари ва суғориш тартибларини тупроқнинг агрофизик хоссаларига таъсири.....	686
Qodirov Jaloliddin Jamoliddinovich	
Farg‘ona viloyati sharoitida ertangi kartoshkani zararkunandalarga qarshi uyg‘unlashgan kurashish samaradorligi.....	692
Abdurahimova Muhabbatxon Alijonovna	
Xalq tabobatida dorivor o‘simliklarning inson faoliyatidagi o‘rni.....	695
Abdurahimova Muhabbatxon Alijonovna	
Kiyik o‘tining (herba ziziphorae pedicellatae) va dorivor rozmarin - rozmarin aptechniy -rosmarinus Officinalis l - ning dorivorlik xususiyatlari.....	699
Atabayev Ma‘ruf Mahmudovich, Tashkulov Salimjon Mamatnazarovich	
Mineral o‘g‘itlarni turli me‘yor va nisbatlarda qo‘llashning tuproq unumdorligi hamda g‘o‘za hosildorligiga ta’siri.....	703
Kasimov Botir Sadriddinovich, Safarov Asqarbek Asadullayevich, Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li	
Respublikamizda paxtani har xil mayda iflosliklardan samarali tozalashning konstruksiyasini xisoblash va yaratish usullarini ilmiy asoslash.....	710

Pedagogika fanlari

Khujakulov Abdulaziz Hakim oglu	
Development of vital activity safety competency research skills that are developed by students through increase.....	720

UO‘K: 633.51:631.811.98

**CHIGITNI EKISH OLDIDAN ORGANIK ASOSLI STIMULYATORLAR
BILAN ISHLOV BERISHNING NIHOLLAR UNIB CHIQISHIGA TA’SIRI****KARIMOV SHAROFIDDIN ABDUKARIMOVICH**Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish
agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot
instituti (PSUYAITI) katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d. (PhD),**ISLOMOV TOYIRXUJA HASAN O‘G‘LI**

tayanch doktorant

E-mail: toirislomov21@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maltamin, Marvarid hamda Regoplant biostimulyatorlari bilan chigitga ekish oldidan 0,2 l/t, 0,5 l/t, 250 ml/t me’yorlarda ishlov berilganda, chigitlarning dala unuvchanligi nazorat variantiga nisbatan 7,4-11,8 % ga ortganligi va nihollarning sog‘lom, bexato unib chiqqanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: biostimulyator, organik asosli stimulyator Maltamin, Marvarid, Regoplant, unuvchanlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается, что при предпосевной обработке семян биостимуляторами Мальтамин, Марварид и Регоплант в нормах 0,2 л/т, 0,5 л/т и 250 мл/т соответственно, полевое всхожесть семян увеличилась на 7,4–11,8 % по сравнению с контролем, а всходы отличались здоровым и равномерным прорастанием.

Ключевые слова: биостимулятор, органический стимулятор Мальтамин, Марварид, Регоплант, всхожесть.

Annotation: This article discusses that pre-sowing treatment of seeds with the biostimulants Maltamin, Marvarid, and Regoplant at rates of 0.2 l/t, 0.5 l/t, and 250 ml/t, respectively, increased field germination by 7.4–11.8% compared to the control variant, and the young growths emerged healthy and uniformly.

Keywords: biostimulant, organic-based stimulator, Maltamin, Marvarid, Regoplant, germination.

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyoda global iqlim o‘zgarishi natijasida qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda o‘shishni sozlovchi moddalardan keng miqyosda foydalanilmoqda. Ma’lumki, fiziologik faol moddalar qo‘llanilganda urug‘larning unishi, o‘simlikning o‘shishi, rivojlanishi jadallashishi bilan birga qurg‘oqchilikka, sho‘rlanishga, kasalliklarga chidamliligi ortadi, mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanilib, yuqori va sifatli hosil yetishtirishga erishiladi.

Xususan, respublikamizda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda biostimulyatorlar muhim ahamiyatga ega. Chigitlarni bir tekis undirib olish, kasallik va zararkunandalarga bardoshlilikini oshirish, g‘o‘zaning o‘sib rivojlanishini yaxshilash natijasida g‘o‘zadan yuqori, sifatli hosil olish hamda biostimulyatorlarni keng joriy qilish va ilmiy ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-son Farmonida O'zbekiston Respublikasida organik qishloq xo'jaligi va organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarida biologik vositalardan kompleks foydalanish, bioo'g'itlar va biopreparatlarni qo'llashning yaxlit tizimlarini ishlab chiqish belgilangan. Shunga asosan qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashda o'sishni sozlovchi moddalarni qo'llashning maqbul muddat va meyorlarini ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida ham ko'pgina o'zgarish va rivojlanishlar bo'lmoqda, hamda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shuning bilan bir qatorda sug'orib dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari qisqargani, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yerlarning sho'rlanish darajasining ortishi, noqulay ob-havo sababli qishloq xo'jaligi ekinlaridan yetarlicha hosil olishda katta qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Har qanday tuproq va iqlim sharoitida ham tashqi omillarga chidamli, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, ertapishar, serhosil va sifatli paxta yetishtirish ustuvor vazifaga aylangan. Bunda stimulyatorlar nihollarning unib chiqishini tezlashtirib, o'simlikning yaxshi o'sib rivojlanishini ta'minlab, yuqori va sifatli hosil olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sh.Abdualimov, S.Raxmonqulov, Sh.Karimovlar (2008) ilmiy tadqiqot ishlarida, Natriy gumat, Obereg, Mival-Agro va Fitovak stimulyatorlari bilan chigitga ekish oldidan ishlov berilganda va g'o'za vegetatsiyasi davrida qo'llanilganda chigit unuvchanligi 9,1-12,6% tezlashib, o'simlik o'sishi va rivojlanishi jadallashgan va qo'shimcha 1,9-3,7 s/ga paxta hosili olingan. Shuningdek, mineral va organik o'g'itlar ham o'simlik hayotida muhim o'rinni egallaydi va biogumus ma'dan o'g'itlar bilan birgalikda g'o'zaga qo'llaganda tuproqning agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilanib, o'simlik o'sishi va rivojlanishi tezlashgan.

Sh.Abdualimovning (2006) ta'kidlashicha stimulyatorlar nafaqat paxta balki bug'doyga ham ijobiy ta'sir etadi. Farg'ona va Namangan viloyatining tuproq-iqlim sharoitida kuzgi bug'doyni ekish oldidan Unum stimulyatorlarini 1,0 ml/t va tuplash-naychalash davrlarida 8,0-12,0 ml/ga me'yorda qo'llash nihollarning unib chiqishini tezlashtiradi, o'simliklarning o'sib rivojlanishini yaxshilab mo'l hosil olishga ijobiy ta'sir etadi, don sifati ortishiga olib keladi. Unum stimulyatorlarini ekish oldidan urug'likga 1,0 ml/t me'yorda, o'simliklarga tuplash-naychalash davrida 10-12 ml/ga me'yorda qo'llash tavsiya etiladi.

Sh.Abdualimov, Sh.Karimov, Ch.Ulug'ovlarning (2018) tajribalarida Zamin-M stimulyatori bilan 2015-2017-yillarda chigitga 2,0-2,5 l/t me'yorlarida ishlov berilganda, chigit unib chiqishi nazorat variantiga nisbatan 5,1-19,1% ga, Baykal EM 1 preparatiga nisbatan esa, 1,8-10,7% ga ortganligi kuzatilgan hamda Zamin-M stimulyatorining 2,5 l/t me'yori chigitga ishlov berishning eng maqbul miqdori ekanligi aniqlangan.

Zamin-M preparati bilan g'o'zaning vegetatsiya davrlarida ishlov berilganda hosil elementlarining to'kilishi nazorat variantida 28,3%, Baykal EM 1 preparati qo'llanilganida 24,8, Zamin-M bilan ishlov berilganda 16,4-27,8% hosil elementlari

to'kilgani holda, eng kam to'kilish Zamin-M chigitga 2,5-3,0 l/t va g'o'zaga 2,0+2,0 l/ga me'yorlarida ishlov berilganda kuzatilgan va nazoratga nisbatan 5,2-11,9% kamroq to'kilganligi aniqlangan.

Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida Zamin-M preparati bilan chigitga va g'o'zaning shonalash-gullash davrlarida 2,0-2,0 l/ga me'yorlarda ishlov berilganida qo'shimcha 5,3 s/ga hosil olishga yoki hosildorlik nazorat variantiga nisbatan 12,9% ga ortishi tajribada isbotlangan.

Sh.Abdualimov, F.Abdullayev (2016) izlanishlarida, Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida Gumimaks stimulyatori bilan chigitga 0,6-1,0 l/t me'yorlarda ishlov berilganda dala unuvchanligi 5,7-6,0% yuqori bo'lgan.

Sh.Abdualimov (2014) tadqiqotlar natijalariga ko'ra Gumimaks stimulyatori kuzgi bug'doyni ekish oldidan urug'lik donga hamda tuplash va naychalash davrlarida o'simlik ustidan qo'llanilganda, nihollar unib chiqishi tezlashdi, ildizi kuchli va baquvvat rivojlandi, pirovardida don hosildorligi 3,2-6,6 s/ga ortdi.

Sh.Abdualimov, F.Abdullayevlarning (2012) tadqiqotlariga ko'ra stimulyator qo'llanilmagan nazorat variantlarida yetishtirilgan paxta hosili 30-33,9 s/ga ni tashkil qilib, Gumimaks stimulyatori qo'llanilgan variantlarda esa bu ko'rsatgich ortganligi kuzatildi. Gumimaks stimulyatorini chigitga 0,6-1,0 l/t ishlov berilganda nihollar 1-2 kun erta unib chiqdi va dala unuvchanligi 5,7-6% oshdi, g'o'za o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilib, bo'yi 0,8-8,9 sm hosil shoxlari 0,5-1,4 dona, ko'saklari 0,3-1,8 dona nazoratga nisbatan ortgan. Gumimaks chigitga ekish oldidan 0,8-1 l/t va g'o'za shonalash va gullash davrlarida 0,3 l/ga me'yorda ishlov berilganda 32,8-33,9 s/ga hosil yetishtirilib, qo'shimcha 2,8-3,9 s/ga yoki 9,3-13% yuqori hosil olindi va iqtisodiy samaradorlik ortganligi kuzatildi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tajriba 11 ta variant va 3 ta qaytariqdan iborat bo'lib, g'o'zaning "Buxoro-10" navi 60x15x4 sxemasida qo'lda ekildi. Variantlar uzunligi 25 m, eni 2,4 m, maydoni 60m², shundan hisoblash maydoni 30 m² ni tashkil etdi. Chigit ekish oldidan 1 t urug'lik 600 l suv hisobida 3-4 soatda 200 l suv sarflab 3 marta namlandi. Tajriba variantlarini taqqoslash uchun etalon sifatida Uzbiogumin stimulyatori bilan chigitga 1,0 l/t, Maltamin va Marvarid stimulyatorlari bilan mos ravishda 0,2-0,5 l/t hamda Regoplant stimulyatori bilan esa 250 ml/t me'yorlarda qo'llanildi. Maltamin stimulyatori g'o'zaning 2-4 chin barg davrida 0,8-1,0-1,2l/ga, Marvarid 0,3-0,5-0,7 l/ga, Regoplant 40-50-60 ml/ga me'yorlarda gektariga 300 litr suv hisobida, shonalash davrida Maltamin 0,8-1,0-1,2l/ga, Marvarid 0,8-1,0-1,2 l/ga, Regoplant 40-50-60 ml/ga me'yorlarda gektariga 400 litr suv hisobida va gullash davrida 0,8-1,0-1,2l/ga, Marvarid 1,3-1,5-1,7 l/ga, Regoplant 40-50-60 ml/ga me'yorlarda gektariga 500 litr suv hisobida qo'llanildi. Tadqiqotlar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007) asosida olib borildi.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Organik asosli Maltamin, Marvarid va Regoplant stimulyatorlari bilan tajribalar o'tkazish 2023-yildan boshlanib, bunda tajriba tizimi 11 ta variant qilib joylashtirildi va turli xil me'yor va muddatlar belgilab olindi. 2023-yil mavsumda chigit 17-aprelda

qo'lda ekildi va ekishdan oldin chigitlar tajriba variantida belgilangan me'yorlarda stimulyatorlar bilan ishlov berildi. Chigitlarning unib chiqishi 4 muddatda kuzatuvlar olib borildi. Unib chiqqan ko'chatlar soni 16,6 p/m da sanash orqali aniqlandi. Dastlabki kuzatuvda nazorat variantida unib chiqish 17,7 % foizni tashkil qildi. Maltamin stimulyatori 0,2 l/t qo'llanilgan 5 variantda nazorat variantiga nisbatan unuvchanlik 6,8 % ga ortgan bo'lsa, Marvarid stimulyatori 0,5 l/t me'yorda qo'llanilgan 6 va 7 variantlarda 4,0-10,2 % ga yuqori va Regoplant stimulyatori 250 ml/t qo'llanilgan 9, 10, 11 variantlarda birinchi kundanoq nazoratga nisbatan unuvchanlik mos ravishda 2,4-8,6-1,8 % ga ortdi. Keyingi kuzatuvlarda ham shunga o'xshash holatda kuzatildi. Bunda Maltamin, Marvarid va Regoplant stimulyatorlari qo'llanilgan variantlarda nazorat variantiga nisbatan chigit unuvchanligi ortishi kuzatildi. Oxirgi kuzatuvda nazorat variantda unuvchanlik 85,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Uzbiogumin stimulyatori qo'llanilgan etalon variantda unuvchanlik 96,8 % ni tashkil qildi. Maltamin, Marvarid va Regoplant stimulyatorlari qo'llanilgan variantlarda chigitlarning unib chiqishi 93,4-97,8 foizni tashkil qilib nazorat variantidan 7,4-11,8 % ga yuqori bo'lganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Organik asosli Maltamin, Marvarid va Regoplant stimulyatorlari bilan chigitga ekish oldidan ishlov berilganda nihollarning unib chiqish darajasi, 2023-yil

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazorat variantida chigitlarning dala unuvchanligi 85,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Maltamin stimulyatori 0,2 l/t qo'llanilgan variantlarda unuvchanlik nazoratga nisbatan 7,4-11,2 % ga, Marvarid stimulyatori 0,5 l/t qo'llanilgan variantlarda unuvchanlik nazoratga nisbatan 8,0-11,8 % ga va Regoplant stimulyatori 250 ml/t qo'llanilgan

variantlarda unuvchanlik nazoratga nisbatan 8,2-11,2 % ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Bundan ko'rinib turibdiki organik asosli Maltamin, Marvarid va Regoplant biostimulyatorlari bilan chigitga ekish oldidan 0,2 l/t, 0,5 l/t, 250 ml/t me'yorlarda ishlov berilganda chigitlarning bexato va sog'lom unib chiqishiga erishish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdualimov Sh., Raxmonqulov S., Karimov Sh. Chigitga yangi stimulyatorlar bilan ishlov berishning nihollar unib chiqishi va paxta hosiliga ta'siri // O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligida suv va resurs tejovchi agrotexnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. -Toshkent, 2008. -B.326-328.

2. Abdualimov Sh. G'o'zada entojean retardartini turli me'yor va muddatlarda qo'llashning hosil elementlari to'kilishiga ta'siri. // O'zbekiston paxtachiligini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy to'plami II qism. -Toshkent, 2014. -B.122-126.

3. Abdualimov Sh., Abdullayev F. Gumin asosli stimulyatorlarning chigit unib chiqishi, g'o'zaning fotosintez maxsuldorligi va hosildorlikdagi o'rni // Agro Ilm 5-son -Toshkent 2016. -B 9-10.

4. Abdualimov Sh., Abdullayev F. Gumimaks stimulyatorining g'o'za kasalliklari va chigit moydorligiga ta'siri. // Tuproq unumdorligini oshirish, g'o'za va g'o'za majmuidagi ekinlarni parvarishlashda manba tejovchi agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etishning ahamiyati. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalari to'plami. Toshkent, 2012. -B.125-128.

5. Abdualimov Sh., Karimov Sh., Ulug'ov Ch., Zamin-M stimulyatori bilan ishlov berishning g'o'za parvarishida samarali usul // Qishloq xo'jaligi ekinlari genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarining dolzarb muammolari hamda rivojlantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. -Toshkent, 2018. -B 537-541.

6. Abdualimov Sh.X. Kuzgi bug'doyda Unum stimulyatorini qo'llash. // Fermer xo'jaliklarida paxtachilik va g'allachilikni rivojlantirishning ilmiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari asosidagi maqolalar to'plami. Toshkent, 2006. -B.375-378.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.



“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**